



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**



**IS‘HOQXON IBRAT NOMIDAGI
NAMANGAN DAVLAT CHET
TILLARI INSTITUTI**

2024 / 2

**ZAMONAVIY FILOLOGIYA MUAMMOLARI
ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОЙ ФИЛОЛОГИИ
PROBLEMS OF MODERN PHILOLOGY**



www.namsifl.uz



[namsifl](https://www.facebook.com/namsifl)



[ibratnamdchti](https://t.me/ibratnamdchti)



[ibratnamdchti](https://www.instagram.com/ibratnamdchti)

MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRUVCHI SAMARALI USULLAR

Kurbanova Feruza Komiljanovna

ChDPU Tayanch doktorant

+998977582205 (k.feruza22051987@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz madaniyatlararo kompetensiya taraqqiyotida foydali boʻlgan oʻqitish va oʻrganish jarayonida sinalgan bir necha usullarni taqdim etamiz. Quyida keltiriladigan namunalar madaniyatlararo kompetensiya komponentlarini rivojlantirishda qoʻl keluvchi misollar sanalib, ularning koʻpchiligi ham rasmiy ham norasmiy oʻrganish jarayonlarida qoʻllanilishi mumkin. Til oʻrganuvchi talabalar uchun madaniyatlararo kompetensiya juda muhim hisoblanadi chunki bilingual taʼlim jarayonida boshqa madaniyat vakili boʻlgan suhbatdosh bilan samarali muloqot olib borishda uning madaniyatidan xabardorlik katta ahamiyat kasb etadi.

Kalit soʻzlar: munosabatlar, bilim, koʻnikmalar, harakat, tajribaga asoslangan oʻrganish, loyiha, hamkorlikdagi taʼlim, qadriyatlar, meʼyorlar, drama, ijodkorlik, matnlar, ijtimoiy tarmoq.

Abstract: In this article we present several experienced ways of teaching and learning that are helpful to develop intercultural competence. The following recommended samples are considered useful models for the development of the components of the intercultural competence, they can be utilized both in formal and informal learning process. Intercultural competence is vital for foreign language learning students because in the process of bilingual instruction during the interaction with the others of diverse cultures cultural awareness plays an important role in order to reach successful communication.

Keywords: interactions, knowledge, skills, action, experiential learning, project, collaborative learning, values, norms, drama, creativity, contexts, social network.

Аннотация: В этой статье мы представляем несколько проверенных методов преподавания и обучения, которые полезны для развития межкультурной компетенции. Следующие примеры являются примерами развития компонентов межкультурной компетенции, и многие из них могут использоваться как в формальном, так и в неформальном процессе обучения. Межкультурная компетенция очень важна для изучающих язык, поскольку в процессе билингвального образования осознание своей культуры имеет большое значение для эффективного общения с собеседником, представляющим другую культуру.

Ключевые слова: отношения, знания, навыки, действие, экспериментальное обучение, проект, совместное обучение, ценности, нормы, драма, творчество, тексты, социальная сеть.

Tadqiqotlarga asosan ta'lim ma'ruza yoki bilimni passiv o'rganuvchilarga uzatish jarayonida quyi darajaga tushadi. Munosabatlar, bilim va tushunish, ko'nikmalar va harakatga nisbatan xohish bor bo'lganda haqiqiy o'zgarishlar sodir bo'ladi, ya'ni ma'ruza ko'p ta'sirga ega bo'lmaydi. Masalan, demokratiya, hurmat va madaniyatlararo kompetensiyaning ahamiyati haqida ma'ruza qilish ahamiyatli bo'lmasligi mumkin. Boshqa tomondan o'z ichiga tajriba, farq, tahlil, aks ettirish va hamkorlik ishlarini olgan tajribaviy o'rganish yoki bajarish orqali o'rganish norasmiy va rasmiy ta'limda agarda bu o'qitish va o'rganish metodlari rasmiy milliy va mahalliy dastur va ta'lim boshqarmalari tomonidan qo'llab quvvatlansa eng samarali usullardir.

Ko'plab innovatsion o'qitish texnikalari va ishlash shakllari endilikda yuqori darajada tarqalgan bo'lib, ularning maqsadi bugungi ta'limda o'rganish jarayoniga yordam berishdir. Loyiha ishi, misol uchun oliygohlardagi ko'plab fanlarni o'qitishda mashhur bo'lib ulgurgan. U turli daraja va yoshga mos bo'lgan mavzulashtirilgan topshiriqlardan iborat bo'ladi. Bu jarayonda maqsad va mazmun barcha qatnashchilar tomonidan kelishiladi hamda o'rganuvchilar o'zlarining birgalikda namoyish qiladigan va baholaydigan o'quv materiallarini yaratishadi. Haqiqatan ham, ta'lim jarayonida bunday uslublar va yondashuvlar bilan o'qituvchi va o'rganuvchilar rollari ham o'zgaradi. Talabalarni tajriba, kashfiyot, qiyinchilik, tahlil, farq, ta'sir va hamkorlikda faol bo'lishga undovchi pedagogik yondashuvlar, metodlar va texnikalar amaliyotga tatbiq qilinganda ta'limiy mashg'ulotlar o'zining o'rganuvchilarni yaxlit inson sifatida jalb qilish va ularning aqliy, hissiy va jismoniy kuchiga murojaat qilish orqali samarali hisoblanadi.

Fan sohasidan qat'iy nazar madaniyatlararo kompetensiya taraqqiyotiga hissa qo'shishi isbotlangan ta'limga va o'rganishga bunday o'ziga xos yondashish bu hamkorlikdagi o'rganishdir. Hamkorlikdagi o'rganishda talabalar nafaqat izohlanmagan topshiriq ustida sheriklari bilan yoki kichik guruhlarda ishlaydilar balki vazifalarning ichki tuzilmasida qurilgan hamkorlik tamoyillariga ega mashg'ulotlar ustida birgalikda ishlashadi.

Bu o'rganish turida o'quvchilar, talabalar yoki qatnashchilar yakka tartibda o'zlarining ta'limiga javobgardirlar va guruhning butun bo'lib ishlashi ham baholanadi. Hamkorlikdagi guruhlar yuzma-yuz yoki onlayn harakat qiladi va bu jamoaviy ish guruh a'zolari o'rtasida rivojlangan ijtimoiy ko'nikmalarga va ziddiyatni hal qilish strategiyalari hamda yakka a'zolarning ajralib qolishi va unga nisbatan xulosalash holatlarining kamayishiga sabab bo'ladi. Ushbu munosabatlar, bilim va ko'nikmalar doirasida har bir guruh a'zosi o'z kuchlarini ishga qarata birlashtiradi va fanning nimaligidan qat'iy nazar u ijtimoiy fanlarni gumanitar sohami, aniq fanlarni yoki tabiiy fanlarni yangi bilim egallaydi. Bunday

topshiriqlarda qatnashadigan o'quvchilar tez fursatda muvaffaqiyatga erishish uchun bir-biriga hurmat bilan e'tiborli va dildan yaqin bo'lishlari kerakligini anglab olishadi. Kooperativ guruhlar aniq maqsadlar bilan boshqarilsa va topshiriq ijobiy bo'g'liqlikni talab qilsagina guruh a'zolari vazifa o'rganilgani sari ular tenglik va ishtirok tushunchalarini rag'batlantiruvchi ko'plab mashg'ulotlarda ish olib borishadi. Hamkorlikda o'rganish ijodiylik tamoyillarining ba'zilarini talab qiladi va o'zini tadqiq qilishga asoslangan yondashuvda faol jalb qiladi. Kooperativ texnikalar kichik guruhlar atrofida aylanar ekan ular boshqa ta'limiy strategiyalar, yodashuvlar va metodlarga qo'shimcha tarzida qo'llanilishi mumkin va yuqorida tavsiflanganidek ular fan sohasidan qat'iy nazar qo'llanilayotgan joyda madaniyatlararo kompetensiyaning tarkibiy qismlarini rivojlantiradi, Quyida biz ta'lim orqali umummadaniy kompetensiya rivoji uchun mashg'ulotlarni namoyish qilamiz:

- Ko'p turli qarashlarga ahamiyat qaratadigan mashg'ulotlar. Bunday mashg'ulotlar o'rganuvchilarning kuzatish mahorati, talqin qilish va qayta markazlashish shuningdek ochiqlik va tanqidsiz fikrlashga oid mahoratlarini oshiradi. Bu topshiriqlar turli qarashlarni ko'ruvchi boshqalar tomonidan amalga oshirilgan hodisa, axloq yoki voqeaning izohlari yoki vizuallari bilan to'ldirilishi yoki yonmayon qo'yilishi mumkin bo'lgan hodisa, harakat yoki voqeaning verbal tavsifi yoki vizual yozuvi shakllarini olishi mumkin.

Masalan, 3ta turli xil kelib chiqish, qadriyatlar, me'yorlar, ko'nikmalar va bilimga ega bo'lgan va hattoki turli tilda gapiruvchi bolalarning kundalik shaklida yozilgan maktab yoki yozgi ta'tildagi bir xil kunning hodisalarini o'qish, solishtirish, tahlil qilish, muhokama qilish va balkim ijro etish juda qiziq. Mashg'ulotning o'rganilishi tajribadan taassurot qoldirish va tushunish hamda foydalanilgan janr va til tajribani anglashga qanday ta'sir qilishini ko'rsatish muhim. Fasilitatorlar guruh a'zolari bilan nega insonlar bir xil voqea, hodisa yoki harakatni turlicha tushunishi va agarda odamlarni dastlabki taassurotlarga va keng tarqalgan ammo ko'pincha no'g'ro yo'naltiriladigan taxminlarga asosa tanqid qilinsa nima bo'lishini muhokama qilishlari lozim.

Bunday har xil qarashlarni tahlil qiluvchi mashg'ulotlar madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish uchun qo'llanilishi mumkin. Misol uchun tarixiy hodisalar dunyoning turli qismlarida yashovchi va turli tillarda gapiruvchi 2ta tarixchi tomonidan turlicha tavsiflanishi mumkin. Qarashlarni taqqoslash guruhi yoki sinf, yoki hattoki oila ichidagi a'zolari o'rtasidagi real ziddiyatlar munosabatida jalb qilingan insonning o'z ziddiyatlari yoki muammolarini hal qilish jarayonida kon'ikmalar va munosabatlarni rivojlantirish uchun qo'llanilishi mumkin.

- Rolli ijrolar, tasvirlash va drama. Rolli ijro, tasvirlash va drama mashg'ulotlari talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Misol uchun o'qituvchilar rolli kartochkalarni talabalarga ularni o'zlarining odatiy uslubidan, me'yor va standartlardan boshqacha qilib ijro etishi lozimligini aytgan holda tarqatishi mumkin hamda ular muammoni hal qilishi, topshiriqni bajarishi yoki ularga topshirilgan yangi shaxsiylikka asosan masalani

guruhda muhokama qilishlari lozim. Rolli ijrolar, tasvirlash va dramaning madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishdagi foydalari juda ko'p. Talabalar shuningdek insonlar til qo'llanilishidagi muloqotida asosiy me'yorlar, e'tiqodlar va qadriyatlar orqali farqlarni ifodalasa ham bu farqlar ularni insonlar sifatida ahamiyatsiz qila olmasliklarini o'rganishadi. Har bir rolli ijrodan keyingi guruh bilan bo'ladigan muhokama tadqiqoti o'yin davomida nima sodir bo'lganligi borasida xabardorlikni uyg'otish uchun juda muhimdir. O'yin davomida o'rganganlari tajribani tasvirlashga yordam beradi. Natijada, bunday mashg'ulotlar ochiqlik, qiziquvchanlik va hurmat shuningdek fikrga ahamiyat qaratish va uni taxmin qilish xohishini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek ular kuzatish va talqin qilish ko'nikmalari, o'zganing madaniyati haqida o'rganish va boshqalarni kashf qilish, hamda moslashish va hamfikir bo'lish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

- Teatr, sheriya va ijodiy yozish. Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga yordam beruvchi boshqa guruh mashg'ulotlar bular teatr, sheriya va ijodiy yozishdir. Bo'sh vaqtimizda asarlarni o'qish yoki tomosha qilish orqali biz turli xil qarashlarga ega boshqa madaniyat vakillari haqida o'rganamiz. Xorijiy til darslarida asarlar o'qish va teatr orqali o'rganish talabalarga turli usullarda bilimga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Sahna asarlarini tashkil qilish bu ta'lim turini yanada yaxshilab uni ijro qilish esa talabalarga ular hech qachon tajribadan o'tkazmagan narsalarni o'rganish va tasvirlash imkonini beradi.

Ko'plab qisqa hikoyalar va she'rlar ularni madaniyatlararo kompetensiya taraqqiyotiga olib boradi. Ular o'qilishi, bahra olinishi, muhokama qilinishi, rasmlar orqali namoyish etilishi qayta aytilishi yoki ozgina tasavvur va ijodiy yozish ko'nikmalari bilan hattoki o'rganuvchilar nuqtai nazaridan qayta yozilishi ham mumkin. Bu mashg'ulotlar adabiyotga asoslanadi, aniqki til darslariga mos holda. O'rganuvchilarga ular hech qachon uchratmagan insonlar haqida bilimga ega bo'lish va ular hech qachon tasavvur qilmagan hayot haqida o'rganish imkonini beradi. Bu jarayonlar talabalarga o'z muhitida nimalar hisobga olinganligini o'rganish va o'z boshqalarga dahldor bo'lgan stereotiplarini targ'ib qilish istagini rivojlantirishga yordam beradi.

- Etnogarfik topshiriqlar. Bular talabalarning real dunyodagi hayotni ular taqqoslaydigan, tahlil qiladigan va tasvirlaydigan tajriba va bilimni qaytarish maqsadida tashqariga chiqishga undaydi. Ularning asosiy vazifalari mahalladagi yoki yaqin hududlardagi insonlarni va ularning o'ziga xos madaniy jihatlarini tadqiq qilib o'rganish bo'lishi mumkin. Va natijalar guruhda madaniyatlararo kompetensiya uchun zarur bo'lgan ba'zi munosabatlar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish uchun tahlil va muhokama qilinishi mumkin.

- Filmlar va matnlardan foydalanish. Film tomosha qilish yoki turli xil matnlar o'qish asosan norasmiy o'rganish jarayonida kattalar, yoshlar, bolalar va oilalar o'rtasida bo'sh vaqtni o'tkazishning sevimli mashg'uloti hisoblanadi. Odatda tomosha qilish yoki o'qishdan oldin, davomida yoki keyin sodir bo'lishiga qarab matn yoki film hamda o'zaro munosabat tanloviga qarab bunday tajribalar ota-onalar

yoki vasiy insonlar tomonidan madaniyatlararo kompetensiyani oshirishi mumkin, chunki umuman olganda filmlar va matnlar boshqa joylarni shuningdek yoki o'tmishda yoki hozirda kontekstlarda o'rganuvchilar uchun jismoniy jihatdan hech qachon qabul qilinmaydigan turlilikka aloqador bo'lgan ziddiyatlar va keskinliklarni tadqiq maqsadida o'z-o'zini aks ettirish va ochiqlik uchun kalit bo'lishi mumkin. Filmlar va matnlarni hisobga olib ta'limiy me'yorlarda o'qituvchilar maqsadga ko'ra turlilik ahamiyatli bo'lgan doirada o'rganuvchilardan hodisalar borasida qarashlarini so'rash yoki berilgan sahna/sahifadagi insonlarga e'tibor qaratish orqali muhokama uchun filmlar, film sahnasi yoki yozma manbaalardan parchalar tanlashi mumkin. Bunday mashg'ulotlar talabalarning ko'p turli qarashlardan ogohligini oshiradi va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi chunki filmlar va matnlar rejissorlar va yozuvchilar tomonidan muayyan usullarda tomoshabinlar qabul qilishi uchun yaratiladi hamda bu passiv tarzda har qanday harakatlanayotgan surat yoki yozma asarni qabul qilmasdan uni tanqidiy qayta qurish keyingi jarayonning mas'uliyatidir.

- Gavdalantirish/darsdagi harakatsiz suratlar. Bunday turdagi mashg'ulotda o'qituvchilar talabalarni o'z tanalari hamda bir-birlaridan foydalangan holda bir necha kishini jalb qiladigan harakatsiz ko'rinishlar hosil qilishga undashadi. Bunda ular insonlarni qayta shakllantirishi yoki tasavvuriy kishilar guruhini yaratishi so'raladi. Bunday topshiriqni ado etish uchun ularda bir-biri bilan mos va samarali muloqotda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Bundan tashqari, "harakatsiz imidj" harakatlanuvchi va gapiruvchi inson bo'lishi mumkin. Shuningdek talabalarni harakatlanishga va hodisaga mos holda gapirishga undaydi. Natijada qolgan talabalar surat va videolar olib, unga nutq namunalarini yaratishi mumkin ya'ni bu bilan yanada madaniyatlararo kompetensiya taraqqiyotini rivojlantiruvchi turli xil uslubdagi tildan foydalangan holda suhbatlar yaratishadi. Murakkabroq gavdalantirish turi drama yoki rolly ijrolarga yetaklashi mumkin.

- Ijtimoiy media va boshqa onlayn vositalar. Internet masofani kesib o'tib munosabat qilishi qiyin bo'lgan katta va turli insonlar guruhlari o'rtasidagi qarashlar va fikrlar almashinuvi imkonini beradi. Ushbu kontekstda ijtimoiy tarmoqning tarqalishi munosabat qilish zaruratini ham aks ettiradi ham rag'batlantiradi; internet yoshlar uchun norasmiy tarzda o'rganish uchun muhim soha shuningdek foydalanuvchilar hisoblangan kattalar uchun hamdir. Olib kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlariga qaramasdan ijtimoiy tarmoq va boshqa onlayn vositalardan foydalanish ham madaniyatlararo kompetensiya rivojlantirishi mumkin.

Telekonferensiya va video konferensiyalar bilan birga ijtimoiy tarmoq (platformalar, suhbat imkoniyatlari, ijtimoiy muhit va boshqalar) o'qituvchilar uchun madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiruvchi kuchli vositani taqdim etadi. Misol uchun umumiylikda turli faktorlarni muhokama qilish va ziddiyat yechimi ham madaniyatlararo kompetensiyani ham talab qiladi va uni yanada rivojlantiradi.

Onlayn muloqot shuningdek kommunikativ xabardorlik va kishining o'zligini anglashini oshiradi. Zamonaviy taraqqiyotda yangi platformalarni ham ko'rishimiz mumkin. Masalan sun'iy intellekt ham onlayn vositalarning eng zamonaviy va

mashhur turlaridan biri. Sun`iy intellektdan real-hayotiy jarayonlarni ko`rsatuvchi interaktiv va ulkan o`rganish muhitlarini tashkil qilishda foydalanish mumkin. Masalan, SI turli madaniyat va tillarni namoyish qiluvchi virtual obrazlarni yoki avatarlarni ishlab chiqishi mumkin va talabalarni ular bilan nutqiy bilim, tabiiy tilni qo`llash va kompyuter ko`rinishi orqali munosabat qilish imkonini beradi. Bu talabalarga o`zlarining muloqot ko`nikmalarini ishga solish, madaniy farqlar va o`xshashliklarni o`rganish hamda madaniyatlararo bilimni va sezgirlikni rivojlantirishda yordam beradi.

Sun`iy intellektdan foydalanishning yana bir usuli xorijiy til o`rganuvchi talabalarga ularning harakatlari va yutuqlari borasida shaxsiy va moslashuvchan mulohaza berishda foydalanishdir. Misol uchun, SI talabalarning verbal va verbal bo`lmagan xulq-atvorlari masalan talaffuz, gramatika, lug`at ishoralar, yuz ifodalari va ko`z muloqoti kabilarni tahlil qiladi va ularning madaniyatlararo muloqotini yaxshilash borasida tezkor va konstruktiv mulohazalar beradi. SI shuningdek talabalarning o`rganish uslublari, afzalliklari, maqsadlari va qiyinchiliklarini va o`rganish mazmunini hamda mashg`ulotlarini mos ravishda boshqara oladi.

Sun`iy intellektdan foydalanishning yana bir usuli turli madaniyatdan bo`lgan xorijiy yo`nalish talabalarini hamkorlikdagi va fikrlashga asoslangan o`rganishni ta`minlashdir. Misol uchun, SI bir xil qiziqish va maqsadga ega boshqa davlatlardagi mahalliy so`zlovchilar yoki tengdoshlari bilan xorijiy yo`nalish talabalarini bog`lovchi onlayn platforma yaratishi mumkin. Shuningdek, SI talabalarning fikrlar, tajribalar, qarashlar va turli madaniyatlararo mavzular yoki masalalar bo`yicha mulohazalar almashishini qo`llab quvvatlashi mumkin. Bu xorijiy yo`nalish talabalariga madaniyatlararo tushunchasini, hamdardlik, hurmat va qadrlash tuyg`ularini rivojlantirishga yordam beradi. Bular SI madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish uchun o`rganuvchilarga qo`l kelishi mumkin bo`lgan usullardir. Biroq, SI insoniy munosabat va yo`riqnomalarning o`rnini bosolmaydi. U mavjud pedagogik yondashuvlar va metodlarni kuchaytiruvchi va qo`shimcha vazifasini o`tab beruvchidir. Undan oqilona foydalanish va uning foydalari va cheklovlariga e`tiborli bo`lgan ma`quldir.

Ta`lim orqali madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish madaniyatlararo tushuncha, qadriyat va hurmatga erishishning kuchlli vositasidir. U insonlarga madaniyatlararo suhbatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va turli madaniy qarashlarga ega insonlar bilan hamjihatlikda yashashda zarur bo`lgan kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi. Madaniyatlararo kompetensiyaning taraqqiyoti ham insonlarning ham tashkilotlarning mas`uliyatidir hamda bu ta`limiy uzoq davom etadigan murakkab va dinamik jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arnesen, A.L., Allan, J. & Simonsen, E. Policies and Practices for Teaching Sociocultural Diversity. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2010.



2. Barrett, M. Children's Knowledge, Beliefs and Feelings about Nations and National Groups. Hove: Psychology Press, 2007.
3. Byram, M. Multicultural Societies, Pluricultural People and the Project of Intercultural Education. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2009.
4. Byram, M., Gribkova, B. & Starkey, H. Developing the Intercultural Dimension in Language Teaching: A Practical Introduction for Teachers. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2002.
5. Council of Europe. White Paper on Intercultural Dialogue, 'Living Together as Equals in Dignity'. Launched by the Council of Europe Ministers of Foreign Affairs at their 118th Ministerial Session, Strasbourg, 7 May 2008.
6. Council of Europe. Autobiography of Intercultural Encounters. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2009.
7. Deardorff, D.K. SAGE Handbook of Intercultural Competence. London: Sage, 2009.

<i>Boqiyev Nurali</i>	79
O‘zbek tili o‘quv frazeografiyasi qisqacha tahlili	
<i>Abdumannonov Xojiakbar</i>	88
Devid Almondning “Skellig” romani kompozitsiyasida fantastik va realistik kategoriyalar	
<i>Tursunova Mohira</i>	95
Хорижий тиллардан ўзбек тилига ўзлашган педагогик терминларнинг лингвистик хусусиятлари	
<i>Хусанхўжаев Обидхон</i>	100
Exploring the rich tapestry of literary translation: Uzbek to English	
<i>Parpiyeva Dilfuza</i>	107
Языковой стиль речи Льва Николаевича Толстого	
<i>Мамасодикова Махзуна</i>	111
Игра – гуманная форма обучения	
<i>Юсуфжанова Гулноза</i>	123
Исследование личности и произведений Захириддина Мухаммада Бабура во французской литературе	
<i>Ахмедова Шахноза</i>	126
Charles Dickens ijodiga gotik adabiyot ta’siri	
<i>Turdiyeva Shoxsanam</i>	131
Amir Temur fransuz adiblari nigohida	
<i>Tursunova Zarnigor</i>	134

13.00.00

PEDAGOGIKA FANLARI
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PEDAGOGICAL SCIENCES

Talabalarda lingvomadaniy kompetentlikni rivojlantirish metodikasi	
<i>Yakubbayev Murodilla</i>	139
Assessment methods and resources for teaching translation skills	
<i>Khujanazarova Nozima</i>	143
Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiruvchi samarali usullar	
<i>Kurbanova Feruza</i>	151
Nofilologik ta’limda til bilish darajasini oshirish strategiyalari	
<i>Omonova Maftuna</i>	158
Enhancing creative thinking skills at high school article through technology	
<i>Rahimova Nigora</i>	163
Methodology of developing critical thinking skills of high school students	
<i>Ismoiljonov Shukhratjon</i>	169
Teaching reading to 9th grade learners: strategies and approaches	
<i>Begatova Gulbahor</i>	175